



**Davronbek Olimjonov**

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti  
tayanch doktoranti

E-mail: [davronbek040291@gmail.com](mailto:davronbek040291@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15486928>

## **BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRI KIYIMLARINING AMALIY VA VAZIFAVIY XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar davridagi kiyimlarning amaliy va vazifaviy xususiyatlarini o’z davrining manbalari – “Boburnoma”, “Humoyunnomma”, “Oyini Akbariy”, “Jahongirnoma” asarlariga tayangan holda elshunoslik o’laroq talqin qilingan. Turondagi mavjud kiyim an’analaring Hindistonda boburiylar davrida ham davom etganligi, xususan, kiyim turlari, tuzilishi va evrilishlari haqida ma’lumotlar berilgan.

*Kalit so’zlar:* Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun, Akbar, “Boburnoma”, “Humoyunnomma”, “Oyini Akbariy”, “Jahongirnoma”, “joma”, “poyjoma”, “jig‘a”, “takauchiya”.

Xalqlarning an’anaviy kiyimlari moddiy madaniyatning asosiy qismlaridandir, unda shu xalqning milliy xususiyatlari va madaniy qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Kiyimlar xalq milliy madaniyatining boshqa ko‘rinishlari singari uning turmush tarzi, estetik didi va milliy o‘zligining ko‘zgusi bo‘lishi bilan birga inson umrining fasllari, u yashagan makon va zamon, xo‘jalik yuritish an’analari, hayotdagi quvonchli yoxud qayg‘uli voqealarni o‘zida aks ettiradi [2. – B.3]. Milliy kiyimlardagi o‘ziga xos etnik

xususiyatlarni yoritishda ijtimoiy tabaqalar, turli yoshlarga xos bo‘lgan kiyimlar bilan birga turli jinslarga oid kiyimlar tahlili ham muhim ahamiyatga ega. O‘rta asrlar tarixini yorituvchi ko‘plab manbalar qatori Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham juda ko‘plab qadimgi kiyimlar va gazlamalar (30 ga yaqin)ning nomi berilgan [3. – B.212]. Bu borada “Boburnoma” asarida kiyimlarning tasvirlari o‘sha davrning ijtimoiy, madaniy va siyosiy sharoitlari haqida muhim tushunchalarni ohib beradi. Tadqiqot ishida kiyim faqat amaliy ehtiyoj sifatida emas, balki shaxsiyat, ijtimoiy mavqe va estetik qarashlarning muhim belgisi sifatida tasvirlanadi.

“Boburnoma”da kiyim nafaqat ijtimoiy va estetik ma’no kasb etgani, balki uning nima vazifalarni bajarganligiga qarab, 1) *hukmdorlar*, 2) *harbiylar* va 3) *marosim kiyimlari* kabi turlarga bo‘lish orqali o‘rganish maqsadga muvofiqidir.

### ***Hukmdorlar kiyimlari***

Zahiriddin Muhammad Bobur asarda avvalo o‘z davrining hukmdorlari kiyimlarini tasvirlagan. Xususan, otasi Umarshayx Mirzoning tonni o‘ta tor kiyishi, belbog‘ va sallasini bog‘lanish holati [1. – B.37] bo‘yicha; Sulton Husayn Mirzo zikrida: “...iydlarda kichik sepech dastorni yap-yassi namoyon chirmon chirmab, qarqara o‘tag‘asi(pati) sanchib, namozg‘a borur edi” deya shakli-shamoyili haqida ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari Bobur Mirzoning kiyimi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi – “Humoyunning o‘g‘lli bo‘lg‘onining taxniyatig‘a va Komronning kadxudo(viloyat hukmdori)lig‘ining taxniyatig‘a Mirzoyi Tabriziyni va Mirzobek tag‘oyini o‘n ming shoxruxiy sochqi bila yiborildi. O‘zim kiygan to‘n va bog‘lag‘on kamar har ikki mirzog‘a yiborildi. Mullo Bixishtiydin Hindolg‘a murassa (qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan) kamar va xanjar va murassa davot va sadafkorlik sandali va kiygan nimcham va tagband(kamar) va “Boburiy xati”ning mufradotini (ko‘chirilgan nusxasi) yiborildi” [1. – B.248]. Bundan ko‘rinadiki, Bobur Mirzo mavsumga qarab salsa, to‘n, nimcha (kamzul), belbog‘, kamar, shim, etik kiygan. Boburning podshohlik kiyimlari haqida ma’lumotlar kam bo‘lib, asosan u harbiy kiyimlarda tasvirlanadi. Boburiylar davri manbalarida asosan Jaloliddin Akbar va undan keyingi hukmdorlar kiyimlari haqida ma’lumotlar bisyordir.



Abulfazl Allomiyning ta'kidlashicha, Akbar *takauchiya* deb ataluvchi, yumaloq etakli va o‘ng tomondan bog‘lanadigan ko‘ylak kiygan[4. – B.31]. Bu davrida *takauchiya juda mashhur bo‘lgan kiyim bo‘lib, u yozda ham, qishda ham ishlatilgan.* *Bu hindcha uslubdagi ilk kiyim bo‘lib, turkiycha uslubdan hindcha uslubga o‘zgartirilgan va bu boburiylarning haqiqatan hindlashganligini ko‘rsatgan*[5. – P.15]. Bu kiyim chap tomondan bog‘ich bilan bog‘langan[4. – P.44]. Akbar davrida o‘zigacha hukmdorlikning an’anaviy libosi *jamani takauchiyaga* almashtirib, jamadan esa foydalanilmay qo‘ygan. Takouchiya ipak kiyimlari oltin iplarda bezatilgan. Yozda u asosan nozik paxta matosidan tikilgan qaba kiygan. Akbar davridagi kiyimlar Hindiston iqlimiga moslashtirilgan bo‘lib, Abulfazl tomonidan qayd etilgan. Abulfazlning ushbu qaydlari qimmatli bo‘lib, ular nafaqat kiyimlarni hujjatlashtiradi, balki hukmdorning kiyimlarni loyihalash va nomlash borasidagi qarashlarini ham o‘zida aks ettiradi[5. – P.16].

Boburiy keyingi hukmdorlari haqida chet ellik sayohatchilar tomonidan yozilgan ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Masalan, Angliya qiroli Jeyms I ning elchisi bo‘lgan Tomas Roe Jahongir Mirzoning Ajmarga jo‘nash paytida kiygan libosini tasvirlaydi: *hukmdor ustiga yupqa matodan ishlangan va tillarang naqshli yengsiz libos kiygan edi*[6. – P.29]. Jahongir Mirzo o‘zi uchun *chilta* (yoqali hukmdorlik libosi)deb nomlangan maxsus kiyimlarni joriy etgan[7. – P.15]. Akbar davrida foydalanilgan qaba esa qadr-qimmatning belgisi sifatida qabul qilingan. Unga o‘zgartirish kiritib, uzun ba’zan esa yengi kalta qilib ishlangan bo‘lib, old tomoni butunlay ochiq, tugmasiz, qimmatbaho matodan tikilgan va u *botugiribon* deb nomlangan qayrilgan yoqali libos edi[7. – P.63]. Bundan tashqari, saroy amaldorlariga hurmat belgisi sifatida qimmatbaho sovg‘alar, masalan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan xanjar va qilichlar topshirilgan. Do‘ppilar uchun dastor yoki chira atamalari ishlatilgan[7. – P.290]. Jahongir zig‘a[7. – P.248] – qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan tojni eslatuvchi bosh kiyimni ham qo‘llagan. Xususan, fransuz sayohatchisi Fransua Bernie Jahongirning taxtga o‘tirganidagi libosi haqida shunday yozadi: “Podshoh taxtga o‘tirgan edi. U oq va nafis gul naqshli atlas hamda oltin ipdan ishlangan kashta bilan

bezatilgan libos kiygan edi, boshida oltin matodan qilingan salsa va katta hajmli, nodir qimmatbaho tosh bilan bezatilgan toji bor edi” [8. – P.120].

Erkaklar ichki yengil yengi uzun kiyimlarni “*joma*” deyilgan bo‘lsa, tananing pastki qismga kiyiluvchi shimga o‘xhash yengil kiyimni “*poyjoma*” deyilgan[9. – P.258]. Balki ehtimol bugunimizdagi “*pijama*”ning tarixi “*poyjoma*”ga borib taqalar.

Boburiylar davri malikalarining (Bobur va Humoyun davri) kiyimlari Xuroson va Turon urfiga mos edi[10. – P.113]. Haramdagи ayollar keng va bo‘sh, naqshli lozimlar kiyishgan. Boburiylar ayollari Turonga xos yorqin rangli va boy bezakli kiyimlarni kiyishni yoqtirishgan. Tarixchi olim Manuchchining yozishchicha, har bir ayol kiyimining narxi 40–50 rupiy atrofida bo‘lgan, ba’zan undan ham qimmat bo‘lgan[11. – P.340]. Bernie tadqiqotiga ko‘ra “faqat bir necha soat davomida kiyiladigan marosim kiyimlari 10 – 12 barobar yoki undan qimmat turishi mumkin edi, ayniqsa, ular qo‘lda igna bilan kashta usulda tikilgan bo‘lsa” [8. – P.259].

Boburiy malikalarining dabdabali kiyinish uslubi faqat haram bilan cheklanib qolmagan. Turonlik va hind ayollari o‘rtasida o‘tkazilgan turli ijtimoiy tadbirlar ularning kiyinish uslubi o‘zaro ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. Akbar davridan boshlab erkaklar kiyimidagi o‘zgarishlar kabi boburiy malikalarining kiyimlari ham xilmashillikka ega bo‘la boshlagan. Masalan, Ravshanarobegim (Shohi Jahonning qizi) hindlarning milliy libosi – *sarini* kiyib ko‘rgan[8. – P.151]. Zebunisobegim (Avrangzebning qizi) malika ayollar kiyimi “*angiya-kurti*”ni joriy qilgan [12. – P.123].

Hind va musulmon ayollar umumiy bayramlarda ishtirok etib, o‘z kiyimlarida farqlanmaganlar [9. – P.131]. Humoyun davrida ayollar “taqi” deb ataladigan uzun qalpoq kiyishgan, bu turmushga chiqmagan qizlarga xos edi. Turmush qurgan ayollar esa ustiga parda qoplangan taqi – “*lachak*” yoki “*qasaba*” kiyishgan[13. – B.60].

Shuning uchun boburiylar mamlakatning siyosati bilan bir qatorda uning turmush tarziga ham chuqur va uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatdilar. Faqat Agra, Lohur va Dehli kabi markazlargina emas, balki bevosita boburiylar hukmronligiga bo‘ysunmagan hududlar ham bu ta’sirdan chetda qolmadi. Shu bilan birga, boburiylar o‘zlari ham Hindistondan ko‘p narsani qabul qildilar[13. – B.17].

## Maxsus harb kiyimlari

“Boburnoma”da harbiy kiyimlar haqida ko‘plab o‘rinlarda ma’lumotlar keltirilgan. “*Men hamisha tinch omonlikda ham to ‘n, o ‘q yoyni tashlamay yotardim*” [1. – B.92-93] deya Bobur Mirzo o‘zining holatini bayon qilarkan, uning hayoti davomida podshohlik libosidan ko‘ra ko‘proq harbiy libosda yurganligini sezamiz.

“*Men jiba kiyib edim, g ‘arbichi bog ‘lamaydur erdim, dubulg ‘a ham kiymaydur edim*” [1. – P.150] deya ta’rifidan aniqlangan, harbiy kiyimlar asosan tanani himoya vositalari sifati qalin teridan tayyorlangan ustki kiyim – *jiba*, uni ustidan sovut, bosh uchun temirdan yasalgan dubulg‘a harbiylarning asosiy kiyimlari bo‘lganligini bilamiz. Bundan tashqari asarda harbiy kiyimlarni yurishlar davridagi amaliy jihatlari ham muhimligi ta’kidlangan. Bobur askarlarning harbiy kiyimlari haqida fikr bildirarkan, ularning qulayligi va harakatchanlikka mos bo‘lishini ta’kidlaydi. Harbiy kiyimlarning ushbu amaliy xususiyatlari kiyim dizayni nafaqat tashqi ko‘rinishga, balki qulaylik va samaradorlikka ham asoslanishi kerakligini ko‘rsatadi. Bugungi harbiy nazariyalarida ham ushbu tamoyillar muhim o‘rin tutadi[14. – P.2].

## Marosim kiyimlari

“Boburnoma”da marosimlar keng yoritilgan va ularda kiyim bilan bog‘liq qismlar ham mavjud. Jumladan, unda davlat marosimlarida, tantanali qabul va to‘y marosimlarida kiyilgan maxsus liboslar haqida so‘z yuritiladi. Bu liboslar, ayniqsa, taxtga chiqish marosimlari va saroy bazmlarida kiyilgan. Asarda elshunoslik o‘laroq to‘y, aza kabi oilaviy marosimlarda foydalanilgan kiyimlar, ularning turlari, ko‘rinishi tasvirlanadi.

Asarda to‘y bilan bog‘liq marosimlar tilga olingan, xususan Bobur Mirzo besh yoshligida Samarqandga borganida Sulton Ahmad Mirzo va Xonzodabegimning to‘yidan keyingi o‘tkazilgan “yuz ochdi” marosimida ishtirokini yozadi: “*Hanuz yuz yopug ‘i bor edi. Turkona rasm bila manga buyurdilar, men yuzini ochtim*” [1. – B.45]. O‘zbek xalqining qadimiy “yuz ochdi” marosimi Temuriylar davrida ham o‘tkazilib,

kelinning yangi uy va muhitda hayoti boshlashining xayrli ramziy ma’nosi sifatida yuziga yopingan mato mevali daraxtning novdasi yordamida yosh o‘g‘il bola tomonidan ochiladi. Yuzga yopingan mato kelinning iffati va yomon ko‘zlardan saqlanishga ishora bo‘lib xizmat qilgan. Azada marosimlarda “qora chirmash” [1. – B.111] iborasi aynan motam qora libosiga ishoradir.

Jahongir Mirzo o‘z asarida Nurjahonbeginning Shoh Jahonning g‘alabasi sharafiga ziyofat uyuştirganini va marosimda unga gul tasvirlari tushirilgan naqshdor qimmatbaho sharaf libosi hadya qilganini qayd etadi [7. – P.397].

Keyinchalik Hindiston muhitida boburiylar sultanatining tantanali liboslari qudrat, maqom va madaniy ta’sirni ifodalovchi muhim vizual til bo‘lib xizmat qilgan. Bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Boburiylar saroyida qabul qilingan kiyim tanlovi shunchaki estetik did bilan bog‘liq bo‘lmay, balki ijtimoiy ierarxiya va imperatorlik shaxsiyatining muhim belgisi bo‘lgan.

Boburiylar saroyida kiyim-kechak ko‘rsatkichlari maxsus ramzi va ijtimoiy harakatchanlik mexanizmi sifatida xizmat qilgan. Tadqiqotchilar A.Murali va V.Gupta o‘zlarining qiyosiy tadqiqotlarida saroydagi kiyim-kechak va unga oid ehtiyyot qismlar nafaqat bezak sifatida xizmat qilganini, balki hukmron tabaqa o‘zini quyi tabaqalardan ajratib ko‘rsatish uchun foydalangan vizual til bo‘lganini ta’kidlaydilar[15. – P.33]. Bu o‘zgarish jarayonlar orqali ijtimoiy tartibni saqlab qolish uchun muhim rol o‘ynagan, ya’ni quyi tabaqalar yuqori tabaqalar uslubini to‘liq takrorlay olmagan. Shunga o‘xshash hodisalar boshqa imperiyalar, jumladan, Min sulolasi davrida ham kuzatilgan.

Boburiylarning tantanali liboslari bilan bog‘liq dabdabani Shoh Jahon davriga oid saroy rasmlarida ko‘rish mumkin. Olim Asg‘ar o‘z tadqiqotida [16. – P.39]. Boburiylarning miniatyura san’atida oltin va boshqa qimmatbaho materiallardan foydalanish uslubi imperator qudrati va ulug‘vorligini qanday aks ettirganini qayd etilgan. Ushbu san’at asarlari kiyim-kechakning murakkab qismlarini va ulug‘vor sifatini ochib beradi. Bejirim matolar, nafis kashta bezaklar va hashamatli bezaklar siyosiy ramz sifatida ham xizmat qilgan hamda hukmdorning ilohiy maqomi va madaniy yetukligini vizual tarzda mustahkamlashga yordam bergen.

Shuningdek, kiyimning ijtimoiy maqomni ifodalashdagi o‘rni san’atshunos olimlar Kilinch va Nosir tomonidan batafsil o‘rganilgan[17. – P.967]. Ularning “Akbarnom”ga asoslangan sifatli tahlili shuni ko‘rsatadiki, Boburiylarning zodagonlari kiyim-kechak orqali sharaf, kuch-qudrat va ijtimoiy mavqeni. Ularning tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kiyim va uning bezaklarning puxta tanlanishi bevosita so‘zsiz muloqot vositasi bo‘lib, turkiy madaniy an’analari va mahalliy estetik amaliyotlarning uyg‘unligini aks ettirgan. Bu uyg‘unlik hokimiyatning qonuniyligini mustahkamlash bilan birga, Boburiylar saroyining siyosiy va madaniy jihatdan alohida vizual qiyofasini shakllantirishga xizmat qilgan.

Boburiylar sultanatidagi tantanali liboslar bir necha darajada faoliyat yuritgan: ular ijtimoiy tabaqalanish vositasi, san’at ifodasi hamda siyosiy bayonot bo‘lgan. Ushbu rollarning birlashuvi Boburiylar kiyinish amaliyotlarini hukmronlik qudratini namoyon qilish va murakkab ijtimoiy tuzilmani mustahkamlashning markaziy elementi sifatida shakllantirgan. Olib borilgan ilmiy izlanishlar ushbu kiyimlar oddiy liboslardan ko‘ra ko‘proq ma’no kasb etganini tasdiqlaydi. Ular Boburiylar davridagi madaniy, siyosiy va ijtimoiy mohiyatni o‘zida mujassam etgan kuchli ramzlar bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida 15–16-yuzyilliklardagi turkiy, fors va hind madaniyatlarning tutashgan nuqtasida shakllangan kiyim va taqinchoqlar tizimini batafsil tasvirlagan. Ushbu ma’lumotlar faqat tarixiy fakt sifatida emas, balki o‘sha davr odamlarining kundalik hayoti, ijtimoiy stratifikatsiyasi va estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim etnografik manba hisoblanadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Захириддин Мухамамд Бобур. Бобурнома. Тошкент: Шарқ, 2002.
2. Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.
3. Маҳмуд Қошғарий. Девону лугатит турк. Т. 3 – Т.: Фан, 1963. 212 бет..
4. Dhar. Great Muhamgal Empire. New Dehli, London: Unipress. 2009.
5. Goswamy B. Indian Costumes, in the collection of the Calico Museum

of Textiles. Ahmadabad.1993.

6. Roe Sir Thomas. The Embassy of to the court of Great Mughals (1615-19), London, 1926, S. v. Brijbhushan, Costumes and Textiles of India. Bombay. 1958.
7. Tuzuk-i-Jahangiri tr. by A. Rogers and H. Beveridge. London. 1909-14, Vol.1.
8. Bernier, Travels in the Mughal Court tr. Constable and Smith. Oxford, Vol.1.1934,
9. Coomaraswamy A. K.. History of Indian and Indonesian Art. London, 1927.
10. Zaid Zeenit. The Magnificent Mughals. Oxford, 2002.
11. Mannucci. Storia do Mogol (1653-1708); tr. William Irvine, Vol.2, Delhi, 2010.
12. Misra Rekha. Women in Mughal India, 1967, Delhi.
13. Gulbadanbegim. Humoyunnomma. Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
14. He L. Modern clothing design and clothing culture communication strategy based on the classical network model. Applied Mathematics and Nonlinear Sciences. – 2023. – № 9(1). <https://doi.org/10.2478/amns.2023.2.00338>
15. Murali, A. and Gupta, V. Comparing sartorial indices: costume and courtly culture in Ming China and Mughal India. People International Journal of Social Sciences. 2019. Vol.5(2). <https://doi.org/10.20319/pijss.2019.52.2433>
16. Asghar, S. Unfolding the opulent golden age: gold in mughal miniature court paintings in the era of emperor shah jahan (1628-1658). Pakistan Languages and Humanities Review. 2023. Vol.7(III). [https://doi.org/10.47205/plhr.2023\(7-iii\)39](https://doi.org/10.47205/plhr.2023(7-iii)39)
17. N.Kılınç, E.Nasir. Clothing according to social classes in the Mughal Empire: a study based on Akbarnama miniatures. Motif Akademi Halk Bilimi Dergisi. 2023. Vol.16. <https://doi.org/10.12981/mahder.1221797>

## PRACTICAL AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF CLOTHING DURING THE ERA OF BABUR AND THE BABURIDS

**Annotation.** This article interprets the practical and functional characteristics of clothing during the time of Zahiriddin Muhammad Babur and the Baburid dynasty from

an ethnological perspective, based on contemporary sources such as the “Baburname”, “Humayunname”, “Ain-i-Akbari”, and “Jahangirnama”. It provides information on how the existing clothing traditions of Turan continued during the Baburid period in India, particularly focusing on clothing types, their structure, and transformations.

**Keywords:** Zahiriddin Muhammad Babur, Humayun, Akbar, Baburnama, Humayun-nama, Ain-i-Akbari, Jahangirnama, joma, payjama, jigha, takauchia.

## **ПРАКТИЧЕСКИЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОДЕЖДЫ ЭПОХИ БАБУРА И БАБУРИДОВ**

**Аннотация.** В статье этнологически интерпретируются практические и функциональные особенности одежды времён Захириддина Мухаммада Бабура и эпохи Бабуридов на основе источников той эпохи – таких как «Бабурнаме», «Хумаюннаме», «Айни Акбари» и «Джахангирнаме». Представлены сведения о том, что существовавшие в Туране традиции одежды продолжались и в Индии во времена Бабуридов, в частности, описаны виды одежды, их структура и трансформации.

**Ключевые слова:** Захириддин Мухаммад Бабур, Хумаюн, Акбар, «Бабурнаме», «Хумаюннаме», «Айни Акбари», «Джахангирнаме», «джома», «пайджама», «джига», «такаучия».